

УДК: 372.22:371.03

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI FANLARARO SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

L.A.Muxtarova – katta o'qituvchi

Termiz davlat universiteti

Tayanch so'zlar: xavf, xavfsizlik, ekologik madaniyat, tabiat, hayot, muhit, inson, ekologik nazorat tizimini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Ключевые слова: опасность, безопасность, экологическая культура, природа, жизнь, окружающая среда, человек, совершенствование системы экологического контроля, охрана окружающей среды.

Key words: danger, safety, ecological culture, nature, life, environment, human, improvement of ecological control system, environmental protection.

Tabiat bebaho ne'mat. Uning bag'ridan unib chiqqan gulu giyohlar va daraxtzorlar, har bir daraxt, o'rmonlar, havvonot olami o'ziga xos bir olamdur. Inson mudom borliq og'ushida bo'ladi, undan ta'sirlanadi, bebaho ne'matlaridan zavq-shavq, ibrat va saboq oladi. Tabiatimizni asrashimiz, avaylashimiz bizning salomatligimiz uchun muhim. Inson umri abadiy emas. U chegaralangan. Demak, inson havotini tabiat va koinotdan avro tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois u bilan hisoblashib yashashga intiladi. Biz yashayotgan hudud musaffoligi, ekologik muvozanat barchamizga birday daxldordir. Insoniyatga bitmas-tuganmas ne'matlarni tortiq qilgan yaratgan ona tabiatning bag'riga ne-ne hadyalarni jo etgan. Shu tariqa yer yuzida qimirlagan jon borki rizqlantirilgan. Inson atalmish oliy xilqatdan tortib uchadigan qushning, suzadigan baliqning, qurt-qumursqayu hayvonot va nabototning barini tabiat yasatib va yashatib turishi sir emas. Tekinga tarqatilsa, tillaning qadri bo'lmaganidek tabiatning bu saxovatiga bashariyat hozirgi kunimizda aks ta'sirini ko'rsatmayaptimikan? Qaysidir g'oyani ilgari surishdan avval biz o'z fikrimizni quvvatlantirish unga ishonish va o'zgalarni ishonitirish uchun o'zimiz qanchalik amal qilyapmiz? Har birimiz shu savolni o'zimizga berib ko'raylik. Xo'sh tabiat muhofazasi uchun biz nima qilyapmiz loaaqal unga zarar keltirayotganimiz yo'qmi? degan savolni berib ko'raylik. Har bir inson o'zida ekologik madaniyatni shakllantirishi, boshqalarni ham shunga da'vat etishining o'zi tabiatga befarq emasligidan dalolat.

Shahar ko'chalari, xiyobonlar, bolalar bog'i-yu istirohat bog'laridagi ayrim ko'ngilsiz manzaralarni ko'rganimizda bu holatning sababchisi siz-u bizga o'xshagan ongli zot, inson xatti-harakatlarida madaniyatsizlikning isbotini ko'rish mumkin. Manzilxonani ozoda tutish inson ko'zini quvontirib ko'ngilni ravshan, inson ruhini esa go'zalliklar tomon yetaklaydi. Jonajon O'zbekistonimizda to'rt faslning o'z o'rnida tarovatini namoyon etishi bizga naqadar tabiat fusunkorligidan bahramand bo'lish imkonini bergan. Uni nechog'lik asrab-avaylab, mehrimizni bersak, qadrlasak u ham bizni shu qadar siylaydi, o'z tuhfalari bilan mukofotlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va inson hayotiga tahdid solayotgan global masshtabda ekologik xavfning oldini olish asrimizning eng muhim muammolaridan biri bo'lib turibdi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirishi mumkin bo'lgan xavfli oqibatlarini atrof muhit uchun haqiqiy xavf bo'lib vadro halokatidan kam emas.

Yangi energiya manbalarining kashf etilishi va innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarilishi insoniyatning borlig'iga kuchli va har tomonlama ta'sir ko'rsatishi minglab salbiy oqibatlarni ham olib keladi. O'vlasdan bosilgan qadam va tabiatdagi ijaravonlarga aralashuv atrof-muhitni muhofaza qilish borasida nihoyatda tashvishli vaziyatni vujudga keltirdi.

Dunyoda globalashuv sharoitida fanlarni integratsiyalab o'qitish mazmunini takomillashtirishga e'tibor qaratilib, ta'lim sifatini oshirish, ijodiy tafakkur va bilim olishni rag'batlantirish YuNESKOning xalqaro ta'lim kontseptsiyasida belgilab berildi [2]. Mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh etish, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, boshlang'ich cinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini

fanlararo shakllantirish darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirish zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq faoliyatni tashkil etish uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang'ich ta'lim tizimi muhim o'rin egallaydi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyiliga amal qilgan holda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Jumladan, davlat ta'lim standarti va o'quv rejasiga muvofiq boshlang'ich sinfda o'qitiladigan 1-2 sinf "Tabiiy fanlar", 3-4 sinf "Tabiatshunoslik" fanlari negizida o'quvchilar ilmiy, hayotiy, qiziqarli materiallar asosda siru sinoatlarga boy bo'lgan ona tabiatimizning ekologik holati, tabiiy va ijtimoiy muhiti, atrof-muhit va inson muammolarini anglashi, ularga yechim topish uchun mustaqil tarzda oqilona qarorlar qabul qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tevarak atrofdagi tabiat bilan tanishtirish orqali o'quvchida olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasvur hosil bo'ladi. O'quvchi bizni o'rab turgan moddiy borliq go'zalliklarini his etish va zavqlana olish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ona tabiatga nisbattan mehr - muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash va undan oqilona foydalanishni o'rgatish nazarda tultadi va o'quvchi o'zi yashab turgan xonadon, mahalla, maktab va maktabdan tashqari vaziyatlarni, jarayonlarni kuzatadi, aniqlaydi, o'lchaydi, taqqoslaydi, mustaqil qaror qabul qilish orqali xulosa chiqaradi.

Uzluksiz davom etadigan ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari izlanuvchanlikka, kichik tadqiqotchilikka, kreativ tafakkur qilishga, ijodiy faollikka yo'naltirilib boriladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2-sinf "Tabiiy fanlar" [9] darsligiga muvofiq tuzilgan taqvim rejada 68 ta dars rejalashtirilgan. Darslikda nazariy mavzular bilan bir qatorda turli muammoli mavzularni o'z ichiga olgan 17 ta amaliy mashg'ulot va loyiha ishi keltirilgan. O'quvchilar yil davomida o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarini faollashtirish maqsadida ularni nazariyot va amaliyot birligi tamoyili asosida hayotiy vaziyatlarga bog'lagan holda o'quv topshiriqlarini tahlil qilish, faktlarni tanlash, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish, vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularni avvalgi ob'ektlar bilan taqqoslash, o'z g'oya nuqtai nazarini ilgari surish hamda ularni asoslash, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash tarzida bajaradilar. Darslikdagi mavzularni integrativ yondashuv asosida predmetlararo, mavzulararo, ob'ektlararo, faoliyatlararo bog'lab tushuntirishga erisha bo'ladi, chunki bu mavzular bo'yicha tushunchalarni yanada boyitib, to'ldirib tushuntirilsa o'quvchi kengroq, mazmunliroq, yanada aniqroq tasavvurga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan predmetlarni fanlararo bog'liqlikda o'rganish orqali o'quvchilarda tabiiy-ilmiy, texnik, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hamda mustaqil, ijodiy, mantiqiy, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiya, ekologik ong va ekologik xavfsizlik madaniyat fanlararo o'qitish vositasida shakllantirishda imkoniyatlar yuzaga keladi. Bunda bevosita tabiat va uning oldidagi ongli munosabatlarga tayaniladi.

Ekologik ta'lim berishdan ko'zlangan asosiy maqsad - boshlang'ich sinf o'quvchilarida nazariy ekologik bilim tabiiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish ma'naviy-axloqiy sifatlarini o'zida mujassam etgan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazib, hamda ularni ona yurtini sevishtga, atrof - muhit tozaligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz tarzda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon bo'lib, nazariy ekologik bilimlar, zamonaviy texnika va texnologiyaning tabiiy-ilmiy asoslari, atrof-muhit va tabiat muhofazasi, tabiat va jamiyatning uyg'unligida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakl, metod va vositalari, ekologik madaniyatni shakllantirish masalalariga oid SH.Avezov, N.O'Nishonova, L.Xudoyberdiyev, M.Mirboboyev, M.Nishonboyeva, J.Tolipova, A.T.Hayitov, S.Matrusov, M.K.Hoshimova, B.Qulto'rayev, I.Ismatov, A.T.G'ofurov biologiyani o'qitishda fanlararo bog'lanish, V.N.Sattorov, M.M.Ibodullayevlarning ilmiy-tadqiqotlari e'tirofga sazovor.

Ekologik madaniyat bir necha omillar asosida shakllanadi. Ona tabiatga mehr-muhabbat, atrof - muhit qoidalari va talablari ongli munosabat, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlik madaniyati haqidagi bilim va tasavvurlarni ekologik tarbiya va ekologik bilim asosida o'zlashtirish, an'ana va qadriyatlar, ekologik targ'ibot shular jumlasidandir. Demak, o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish deganda, yuqori darajadagi onglilik, yuksak mas'uliyatni his etuvchi, sog'lom turmush tarzining asl mohiyati va tarbiyaviy ahamiyatini anglagan holda hayot kechiruvchi, aql-idrok va zakovati ila atrof muhitni muhofaza qilish harakatiga faol ishtirok etishga ehtiyoj sezuvchi barkamol shaxs shakllantirishdagi bir butun maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon nazarda tutiladi.

N.SH.Bozorova esa quyidagi ta'rifni keltiradi: "Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok savodxonlik intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatli yondashuvdir" [3]. Unda tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro oqilona, mas'uliyatli munosabat tarkib topadi, deyiladi.

Ko'plab ilmiy ishlar muallifi E.Turdiqulovning ta'kidlashicha, "Ekologik muammolarning asosiy yechimlaridan biri sifatida aholining barcha qatlamlarida ekologiya va atrof-muhitga oid bilimni rivojlantirish, madaniyatini shakllantirish masalasi e'tirof etilmoqda. Ushbu jarayon uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya asosida amalga oshiriladi" [4].

Taniqli ekologshunos B.Ziyomuhamedov o'zining "Ekologiya va ma'naviyat" kitobida ijtimoiy tanglikdan chiqish, ekologik tanazzulning oldini olish yo'llarini qidirish zarurligi va buning uchun, barcha o'quv muassasalarida ekologik ta'limni joriy qilish kerakligi ta'kidlangan. Olim ekologik ma'naviyatning ko'rsatkichi tabiiy muhitni muhofazalash, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanishdan iborat deb hisoblaydi [5].

Olima N.J.Isakulovning "O'quvchilarga ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti" nomli ma'nografiyasida uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish mazmuni, ekologik tarbiya berish shakllari, usullari va vositalari, ekologik tarbiyaning didaktik tamoyillari, fanlararo ekologik tarbiya berishni ta'minlovchi o'quv materiallaridan samarali foydalanish yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya o'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish muammolarining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari, sog'lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda ekologik savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [6].

K.B.Muxammadiyevning "Talabalarni atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti" nomli manografiyasida talabalarni atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy asoslari, pedagogik imkoniyatlari, metod, shakl va vositalari bayon etilganligini ko'ramiz [7].

Ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo aloqadorlik muhim pedagogik muammo sanalib, bu sohada olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, X.B.Norbo'tayevning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan, ta'limni integratsiyalash va ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish masalalari yoritilgan. "Maktab o'quvchilarida ekologik tafakkurni fanlararo shakllantirish uslublarining ahamiyati" [8] keng ochib berilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ekologik tafakkuri ularning dunyoqarashi, xatti-harakati, umumiy madaniyati, xususan, ekologik madaniyatining asosi ekanligini nazarda tutgan holda, biologiya va fizika o'quv fanlarini o'qitishda fanlararo bog'lanish mazmuni, shakllari, o'qitish metodlari, yo'llari va vositalari, biologiya va fizika o'quv fanlarini o'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirishning amaliy jihatlari asoslab berilgan. Mazkur o'quv fanlari mazmunidagi umumiy va xususiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish hamda amaliyotda qo'llash malakalarini tarkib toptirish orqali o'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirish muammosiga doir tadqiqot ishlari e'tirofga loyiq.

Bizningcha, hozirgi kunda yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi tufayli, favqulodda sodir bo'layotgan ekologik hodisalarga insoniyatni qanday yo'l tutish va tegishli xulosalar chiqarishga chorlovchi omillarda ikkilanamiz. Ular odamlarni sergaklantirishi zarur. Buning uchun boshlang'ich sinfda o'quvchilarga ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga oid tushunchalarni tarkib toptirish va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat masalasi insoniyat hayotining ajralmas bir qismi sifatida azaldan xalqimiz turmush tarziga chuqur singib ketgan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmiy sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni 06.11.2020. (lex.uz)
2. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
3. To'xtaev A. Ekologiya. -T.: "O'qituvchi", 1998, 2001.
4. Turdiqulov E.O.Umumbashariy ekologik muammolar. -Toshkent: "Fan", 2011.
5. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat. -T.: «Merros», 1997, 89- b.
6. Isakulova N.J. O'quvchilarga ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti, -Toshkent: "Fan", 2011, 140-b.

7. Muxammediyev K.B. Talabalarni atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: "Fan va texnologiya" 2014, 172-b.

8. Norbo'tayev X.B. Maktab o'quvchilarida ekologik tafakkurni fanlararo shakllantirish uslubi (biologiya va fizika fanlari misolida). Ped.fan.nomz...diss.. avtoref. –Buxoro, 2011, 25-b.

9. Suyarov K. [va boshq.] darslik. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021, 120-b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish mazmuni, ekologik tarbiya berish shakllari, fanlararo ekologik tarbiya berishni ta'minlovchi o'quv materiallaridan samarali foydalanish yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya o'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish muammolarining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari, sog'lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda ekologik savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье научно и теоретически описано содержание междисциплинарного экологического образования школьников в процессе экологического образования, формы экологического образования, способы эффективного использования учебных материалов, обеспечивающих междисциплинарное экологическое образование. В то же время междисциплинарная интеграция помогает студентам понять специфику проблем формирования культуры экологической безопасности, возможности и проблемы современного научно-технического прогресса, способы рационального использования природы, принципы здорового образа жизни и основы экологической безопасности.

SUMMARY

The article scientifically and theoretically describes the content of interdisciplinary environmental education of schoolchildren in the process of environmental education, forms of environmental education, methods of effective use of educational materials that provide interdisciplinary environmental education. At the same time, interdisciplinary integration helps students understand specification of the problems of forming a culture of environmental safety, the possibilities and problems of modern scientific and technological progress, ways of rational use of nature, the principles of a healthy lifestyle and the foundations of environmental safety.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ УСТУВОР ОМИЛЛАРИ

Ф.М.Одашева – ўқитувчи

Андижон давлат университети

Таянч сўзлар: технология, педагогик технология, инновация, таълим инновациялари.

Ключевые слова: технология, педагогическая технология, инновации, образовательные инновации.

Key words: Technology, pedagogical technology, innovation, educational innovations.

Илм-фан, техника, ишлаб чиқариш ва технологиянинг жадал ривожланиши жамият ҳаётининг барча соҳаларида тараққиётнинг янги истикболларини очиб берди. Инсониятнинг давлат ва жамият қурилишига доир асрий тажрибалари ижтимоий муносабатларни янгича ёндашувлар асосида тартибга солиш борасидаги илғор ёндашувларнинг қарор топтирилишига олиб келди. Ижтимоий ҳаёт тубдан ўзгарган бир шароитда таълимнинг янги технологиялари ва усуллари қўллаш асосида бу тизимни жадал ривожлантириш талаб этилади. Республикада амалга оширилаётган ўзгаришларнинг асосий мақсади ва ҳаракатлантирувчи кучи – инсон, унинг баркамол ривожланиши ҳисобланади. Бизнинг асосий мақсадимиз таълим жараёнида шахснинг ҳаётий қизиқишларини қондиришга, умумий маданиятини шакллантиришга, унинг жамият ҳаётида мослашуви, таълим ва касбий дастурларни онгли равишда танлай олиши ҳамда ўзлаштири олишга қаратилган.

Айни вақтда Республика ижтимоий ҳаётига шиддатли тезликда ахборотлар оқими кириб келмоқда ва кенг қўламни камраб олмақда. Ахборотларни тезкор суръатда қабул қилиб олиш, уларни таҳлил этиш, қайта ишлаш, назарий жиҳатдан умумлаштириш, хулосалаш ҳамда билим олувчига етказиб беришни йўлга қўйиш таълим тизими олдида турган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Таълим-тарбия жараёнида педагогик технологияни татбиқ этиш қайд этилган долзарб муаммоларни ижобий ҳал этишга хизмат қилади.

Педагогик технология – педагогиканинг шундай билимлар соҳаси, бу орқали таълим ва тарбия тизимида туб бурилишлар юз беради, ўқитувчи фаолияти янгиланди, ёшларда креатив фикрлаш қўникмалари, билимга чанқоқлик, ўз-ўзига ишонч, янгича дунёқараш шаклланади.

Маълумки, ҳар қандай педагогик технология таълимни ривожлантирувчи янги тамойилларга асосланган бўлиб, шахсни ҳар томонлама шакллантиришга йўналтирилмоғи керак. Илғор педагогик технология марказида таълим жараёнининг раҳбари ҳамда шу жараённинг субъекти ва объекти

бўлган ўқитувчи ва таълим олувчи туради.

Шундай экан, бу икки шахснинг ҳамкорлиги, ўзаро мулоқоти, бир-бирига кўрсатадиган таъсири энг замонавий ва миллий талаблар асосида бўлиши лозим. Бунинг учун таълим жараёни, ўқитувчи, таълим-тарбия жараёни олдида қўйилган талаблар, таълимни ташкил этиш ва бошқариш тамойиллари ҳамда йўллари таълим олувчини ақлий ва жисмоний жиҳатдан ривожлантириш усуллари, у билан ҳамкорлик қилиш, уни ўқиш ва ўрганишга йўналтириш, таълим олувчи шахсий фаолиятини тўғри ташкил этиш, улар билан мулоқотга киришиш, муаммо ва келишмовчиликларни бартараф этиш, аудиторияда ижодий, ишчанлик муҳитини вужудга келтириш, таълим олувчи фаолиятини аниқ ва тўғри баҳолаш методлари билан қўрланган бўлиши лозим [1:38].

Ўқув ва тарбия жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланишдан олдин, аввал, уни ишлаб чиқишдаги қуйидаги омилларга эътибор қаратиш лозим:

- Таълим мақсадларининг устуворлиги. Ўқув жараёнида бир нечта мақсадлар амалга оширилади, аммо таълим тизимининг ривожланишининг турли босқичларида у ёки бу мақсадга устунлик берилади, бу эса янги таълим технологияларининг пайдо бўлишини ёки мавжудларни модернизация қилишни белгилайди.

- Таълим мазмунининг технологияни танлашга таъсири. Технологияни танлашда фан мазмунини муҳим аҳамиятга эга. Ўқув жараёнида касбий фаолиятни моделлаштиришга асосланган барча ўқитиш технологиялари фақат махсус ўқув фанлари учун ҳосил. Фаолиятни ўрганиш технологиялари асосан қўникмаларни шакллантириш билан боғлиқ фанларда (чет тили, чизмачилик, гуманитар фанлар ва бошқалар) қўлланилади. Ўқитиш технологияларини бир фандан бошқасига ўтказиш ҳар доим ҳам самарали ва мақсадга мувофиқ эмас.

- Ўқув жараёни жиҳозларининг технологияни танлашга таъсири. Ўқув ва моддий базанинг ривожланиш даражаси технологияни танлаш ёки ривожлантиришга таъсир қилади. Таълим жараёнида